Hamkorlik aloqalari kengaymoqda

Toshkent botanika bog’iga M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Botanika bog’i direktori V.V.Chub va ilmiy xodimlari tashrif buyurishdi hamda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi akad. F.N. Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog’i rahbariyati bilan uchrashdilar.

Uchrashuv davomida Toshkent botanika bog’i direktori S.X. Abdinazarov mehmonlarni bog’ faoliyati bilan batafsil tanishtirdi, ular uchun Toshkent botanika bog’i ekspozitsiyalari va oranjereyasi bo’yicha ekskursiya tashkil etildi. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Botanika bog’i direktori o’z navbatida uchrashuv qatnashchilariga muassasaning ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati to’g’risida ma’lumot berdi hamda Toshkent botanika bog’i kolleksiyasini to’ldirish uchun lolaning 11 ta yangi navlari ning piyozini taqdim etdi.

Uchrashuv yakuni bo’yicha Toshkent botanika bog’i va M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Botanika bog’i o’rtasida tabiiy florani, manzarali, dorivor va boshqa foydali o’simliklarni himoya qilish va takror yetishtirish, ilmiy-tadqiqot sohasida o’zaro tajriba almashish bo’yicha hamkorlik Memorandumi imzolandi.

Ma’lumot o’rnida: O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi akad. F.N. Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog’i tomonidan o’simliklarni introduktsiya qilish, iqlimga moslash, biologik xilma-xillikni saqlash va jamoatchilikni tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga keng jalb qilish bo’yicha 20 dan ortiq, shu jumladan, Germaniya, Avstriya, Fransiya, AQSh Rossiya, Polsha Islandiya, Nedirlandiya, Shveytsariya, Ispaniya va boshqa davlatlarning botanika bog’lari bilan hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan muayan ishlar amalga oshirilmoqda.

Toshkent Botanika bog’i 2012-yildan Xalqaro Fanlar akademiyasi assotsiatsiyasi qoshidagi MDH Botinika bog’lari Kengashi a’zosi hisoblanadi.

Shuningdek, 2021-yilning may oyida Toshkent Botanika bog’i 118 ta davlatlardagi 800 ta botanika bog’lari bilan ish olib boruvchi hamda o’simliklarni saqlab qolish bo’yicha o’zaro hamkorligi dunyodagi eng katta tarmoqni tashkil etuvchi Xalqaro Botanika bog’larini himoya qilish (BGCI, London) tashkilotiga a’zolikka qabul qilindi.